

## HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYA JARAYONLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Zulunov Muhammadzar Zokirjon o‘g‘li*  
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi*  
*universiteti magistranti., mayor*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, harbiy xizmtchilarda kasbiy deformatsiya jarayonlarida yuzaga keladigan xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etishda ilmiy-nazariy asoslar bilan ta’rif berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Harbiy xizmatchilar, deformatsiya, to‘qnashuv, intizom, harbiy xizmat, burch, sadoqat, jasorat.

### НАУЧО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДЕФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Абстрактный.** В данной статье описаны ошибки и недостатки, возникающие у военнослужащих в процессе профессиональной деформации, а также научно-теоретические основы их устранения.

**Ключевые слова:** Военнослужащие, деформация, конфликт, дисциплина, военная служба, долг, верность, мужество.

### SCIENTIFIC THEORETICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL DEFORMATION PROCESSES IN MILITARY PERSONNEL

**Abstract.** This article describes the mistakes and shortcomings that occur in military servicemen in the process of professional deformation, as well as the scientific theoretical basis for their elimination.

**Key words:** Military personnel, deformation, conflict, discipline, military service, duty, loyalty, courage.

### KIRISH

Yangi O‘zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishdek kontseptual g‘oya bugungi kunga kelib, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Dunyoda ro‘y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan, Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

“Quyi pog‘onalardagi bo‘linmalarning axborot-psixologik ta’sirlarga bardosh bera olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini doimiy yo‘lga

qo‘yish zarur”<sup>1</sup>. Hech shubhasizki, Milliy gvardiya bo‘linmalariga ushbu vazifalarni amalga oshirishda, bugungi kunda har tomonlama yetuk harbiy xizmatchilarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

### ILMIY-NAZARIY ASOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari”.

#### **I bob. Harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.**

**16-moddasining 2-xatboshisida:** Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalarini buzilganda, u zudlik bilan tartib o‘rnatish choralarini ko‘rishga va shuningdek, o‘zining bevosita boshlig‘iga bildiruv berishga majburdir.

**24-moddasi:** Harbiy xizmatchilar harbiy intizom, axloq va askariy or-nomus me‘yorlarini buzish bilan bog‘liq nojo‘ya qilmishlari uchun belgilangan asosda va tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

#### **II bob. Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlar.**

**34-moddasining 2-xatboshisida:** Kattalik harbiy xizmatchilarning harbiy unvoniga qarab belgilanadi. Harbiy unvoni bo‘yicha kattalar, kichiklar harbiy intizomni, jamoat tartibini, axloq, harbiy kiyim-kechakni kiyish va askarchasiga salomlashishni bajarish qoidalarini buzgan hollarda, ulardan bu buzilishlarni bartaraf etishlarini talab qilishi lozim.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarorida:

**1-bob, 2-bandi: Harbiy-kasbiy saralash** - fuqarolarni (nomzodlarni) kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga qo‘yilgan talablarga mos kelishini aniqlashga qaratilgan tadbirlar kompleksi (**intellektual rivojlanganlik va psixoemotsional barqarorlik darajasini psixologik o‘rganish**, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, jismoniy imkoniyatlarni baholash, shuningdek harbiy xizmat uchun kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan boshqa sifatlar);

**Kasbiy deformatsiya** (kasbiy faoliyatning odamga salbiy ta’sir ko‘rsatishi)-

bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan va uning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan o‘zgarishlar tizimidir. Shaxsning kasbiy va shaxsiy xatti-xarakterida nomaqbul fazilatlarining paydo bo‘lishidir. “Kasbiy deformatsiya” atamasini birinchi marta Pitirim Sorokin tomonidan kasbiy faoliyatning odamga salbiy ta’sir kursatishi sifatida kiritildi. S.G.Gellershteyn (1930), A.K.Markova(1996), E.F.Zeyer(1999-2003), S.P.Beznosov(2004),

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-yanvar “Vatan himoyachilari” kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan, Vatan himoyachilarga bayram tabrigi

R.M.Granovskaya(2010), S.A.Drujilov(2013) kabi olimlar asarlarida kasbiy deformatsiyalar va ularning xususiyatlari tasvirlangan.

1930-yillarda **S.G.Gellershteyn** ta’kidlaganidek: “Faol va reaktiv xarakatlarni bajaradigan xodimda birinchi ruhiy deformatsiyalar keyin tana deformatsiyalari uchraydi”<sup>2</sup>, deydi.

**A.K.Markova:** “Shaxsning kasbiy deformatsiyasiga, yoshga bog‘liq o‘zgarishlar, kasbiy charchash, qiyin va chidab bo‘lmas sharoitlar, uzoq muddatli stressli vaziyatlar mehnat va kasbiy o‘shish inqirozlarini olib keladi”<sup>3</sup> deb ta’kidlaydi.

Harbiy xizmatchilar axloqiy deformatsiyalarining sabablari juda ko‘p bo‘ladi.

Chunonchi, harbiy xizmat faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy deformatsiyani keltirib chikaruvchi sabablarga, avvalo:

- faoliyatning mohiyatini va maqsadlarini anglashning yetishmasligi;
- ushbu soxada ishlash istagi yo‘qligi;
- o‘ziga ishonch hissining yetishmasligi;
- noto‘g‘ri intizom;
- zaif nazorat, boshqaruv tomonidan qat’iy talablarning mavjud emasligi;
- harbiy xizmatchida ortiqcha yuklamar yoki muammolar (shaxsiy, oilaviy, jamoaviy) mavjudligi;
- moddiy-ma’naviy yetishmovchilik va boshqalar.

Mazkur sabab va oqibatlariga quyidagicha huquqiy baho berish mumkin:

**10-bob. Harbiy xizmatchilarni haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatish.**

**290-bandining “j” kichik bandi:** Intizomsizligi sababli kursantlar oliy harbiy ta’lim muassasasidan chetlashtirilishi munosabati bilan, bo‘shatishga boshqa asoslar bo‘lmagan taqdirda;

**“z” kichik bandi:** Harbiy xizmatchi nomiga dog‘ tushiruvchi xatti-harakat sodir etganda.

**13-bob. Yakunlovchi qoidalar.**

**359-bandi:** Harbiy xizmatchilar sodir etgan huquqbuzarliklar uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq intizomiy, moddiy, fuqarolik-huquqiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

## XULOSA

Bugungi kunda sifatli ta’lim xizmatlariga, chuqur bilimli, malakali, zamonaviy pedagogik ta’lim texnologiyalaridan habardor kadrlarga, ijtimoiy talab kundan-kunga ortib bormoqda. Bu harbiy xizmatchilardan kreativ tafakkurni, ta’limga innovatsion yondashuvni, xorijiy tajribaga ega bo‘lishni, yuksak intellektual salohiyatni talab qiladi. Natijada, xizmat faoliyatida yuqori adaptatsiya jarayonlarini, taqozo etmoqda. Dastlab, adaptatsiya jarayonlarida organizmning vazifalarini qayta tiklash bilan bog‘liq

<sup>2</sup> С.Р.Безносков. Профессиональная деформация. Санкт-Петербург: 2004 год.

<sup>3</sup> Б.С.Волков. Касбий йўналтириш асослари. Москва: илмий лойиха, МИР жамғармаси 2007 йил.

yangi ko‘nikmalar, odatlar, fazilatlarni hosil qilish va organizmni, shaxsni atrof muhitga moslashishiga alohida vaqt ajratish maqsadga muvofiq. Kasbiy deformatsiyani oldini olishda esa, yuqoridagi sabablarni keltirib chiqaruvchi sharoitlarini aniqlash va ularni o‘z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan bir qator profilaktik chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Kasbiy axloqiy deformatsiyalarga to‘qnash kelmaslik uchun, aqlni nazorat qilish texnikasini o‘zlashtirish, standartlarga va streotiplarga e’tibor qaratish lozim. Qonunchiligimizda belgilangan shartlar asosida vaziyatni o‘ylab, harakat qilishni, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Biz bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan o‘zining muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, xizmat burchini yerda ham, ko‘kda ham sharaf ila ado etayotgan yurtimizning zabardast o‘g‘lonlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz”. Biz har biy xizmatchilar harbiy ta’lim va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida, milliy o‘zligimiz, ezgu qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish yo‘lida bor kuch-g‘ayratimizni safarbar etamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonuni. 2020-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-647-son.
2. Mirziyoyev Sh.M: 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M: 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son Qarori.
4. Mirziyoyev Sh.M: 2023-yil 13-yanvardagi “Vatan himoyachilari” kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan, Vatan himoyachilarga bayram tabrigi.
5. G‘oziyev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
6. Xalperi D. Psixologiya kriticheskogo mishleniya. Piter: 2000.
7. Beznesov S.R. Professionaldaya deformatsiya. Sankt-Peterburg: 2004.
8. Volkov B.S.. Kasbiy yo‘naltirish asoslari. Moskva: ilmiy loyiha, “MIR” jamg‘armasi 2007-yil.
9. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru).
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Psixologiya>